

SPORT TA'LIM MUASSASALARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI

OYBEK ARTIKBAYEV

ijtimoiy fanlar kafedrası mudiri, dotsent, Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti
E-mail: oartikbaev@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada sport ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etishga oid bo'lgan normativ huquqiy hujjatlarning mazmuni yoritilgan.

Kalit so'zlar: sport, jismoniy tarbiya, farmon, qaror, norma, nizom, huquq, Taraqqiyot strategiyasi, olimpiya, seksiya, trener.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 60-sonli Farmoni bilan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" tasdiqlandi [2]. Mazkur Taraqqiyot strategiyasi jamiyat va davlatni tez sur'atlarda rivojlantirish maqsadida qabul qilindi va bu o'z natijasini hamda samarasini bermoqda. Taraqqiyot strategiyasi doirasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlanish masalalari ustuvor vazifa sifatida qo'yilishi ham soha rivojlanishining dolzarbligini anglatadi.

Taraqqiyot strategiyasining 4-ustuvor yo'nalishi adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirishni o'z ichiga olgan **68-maqsadi: Olimpiya va Paralimpiya harakatini rivojlantirish masalasi keltirilgan.** Ushbu maqsadni ijrosini ta'minlash bolalar va yoshlarning maktabdan tashqari sport ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish orqali iqtidorli sportchilarni aniqlash, tanlash va saralash (seleksiya)ning yangi mexanizmlarini joriy qilish, sportchilarning Olimpiya va Paralimpiya, Osiyo va Paraosiyo o'yinlarida, boshqa nufuzli xalqaro musobaqalarda ishtirok etishi hamda yuqori natijalarga erishishini ta'minlash, bu borada trener va sport mutaxassislari mehnatini adolatli asosda rag'batlantirish masalalari belgilab qo'yilgan. Ushbu masalalarni ijrosini ta'minlash va amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyunda "Davlat sport ta'lim muassasalari faoliyatini mutlaqo yangi tizim asosida tashkil qilish choratadbirlari to'g'risida"gi 268-sonli qarori qabul qilindi.

Ushbu qaror bilan vazirlik tasarrufidagi 279 ta bolalar-o'smirlar sport maktablari va ularning filiallari negizida 254 ta sport maktablari tasarrufidagi 56 ta ixtisoslashtirilgan bolalar-o'smirlar sport maktablari negizida 56 ta ixtisoslashtirilgan sport maktablari tashkil etildi.

Endilikda sport maktablari kontingenti faqat Olimpiya va Paralimpiya, Osiyo va Paraosiyo o'yinlari dasturiga kiritilgan sport turlari bo'yicha shakllantirilishi belgilandi. Shu bilan birga milliy kurash sport turi hamda alohida hukumat qarorlari bilan belgilangan sport turlari sport maktablarida faoliyat yuritishi mumkinligi ko'rsatib o'tilgan. Har bir sport maktabi va ixtisoslashtirilgan sport maktabiga davlat budjeti mablag'lari hisobidan Osiyo va Paraosiyo o'yinlari dasturiga kiritilgan 2 ta noolimpiya sport turlari bo'yicha sportchilarni tayyorlashga ruxsat berilgan[3]. Bu esa quyidagi ikki masalaga oydinlik kiritilish vazifasini qo'yadi.

Birinchi masala, shu o'rinda bugungi kunda sport maktablari ikkita noolimpiya sport turlari bo'yicha seksiyalar ochish uchun Osiyo va Paraosiyo o'yinlari dasturiga kiritilgan noolimpiya sport turlari ro'yxatini shakllantirish va vakolatli organ tomonidan tasdiqlash masalasi kun tartibidagi asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

Ikkinchi masala, sport maktabining sport-sog'lomlashtirish va boshlang'ich tayyorgarlik guruhlarida tayyorgarlikdan o'tgan, professional sportga salohiyati bor o'quvchilari ixtisoslashtirilgan sport maktabining tegishli yo'nalishiga (sportning o'yin turlari va yengil atletika, suv sporti turlari, yakka kurash va gimnastika) o'qishga qabul qilinishi belgilab qo'yilgan. Bundan ko'rinadiki, ixtisoslashtirilgan sport maktablariga sportchi o'quvchilar faqat sport maktablaridan olinishi kerak bo'ladi. Istisno tariqasida sport maktablariga iqtidorli bolalar aniqlanganda tegishli sport normativlarini topshirganda qabul qilinishiga ruxsat berilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Sport maktablari faoliyatini belgilab beruvchi yana bir muhim hujjat bu Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 23-sentabrdagi "Sport maktablari

faoliyatini hamda sport maktablari trenerlari va mutaxassislari mehnatini moddiy rag'batlantirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 211-sonli qaroridir. Qaror bilan ikkita nizom tasdiqlangan. Birinchi nizom O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan moliyalashtiriladigan sport maktablarini tashkil etish va ularning faoliyat ko'rsatishi tartibini belgilaydi.

Sport maktablari asosiy faoliyati bolalar, o'smirlar va yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etishga, sport zaxirasi va yuqori mahoratli sportchilar tayyorlash bo'yicha o'quv-mashq jarayonini tashkil etishga, shuningdek sport turlari bo'yicha sport tayyorgarligi mutaxassislari o'rtasida kasbiy tajribani almashishga yo'naltirilgan maktabdan tashqari sport ta'lim muassasalari hisoblanadi [4].

Nizomda sport maktabining asosiy vazifalari quyidagicha belgilab berilgan:

– bolalar, o'smirlar va yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etish, ular o'rtasida ularning sog'lig'ini mustahkamlashga, har tomonlama jismoniy kamol topishiga va sog'lom turmush tarziga ehtiyojni shakllantirishga yo'naltirilgan jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish, sport va tarbiyaviy ishlar olib borish;

– bolalar, o'smirlarda sport bilan shug'ullanish qobiliyatlarini aniqlash va ularni sportning ayrim turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan mashg'ulotlarga jalb qilish, ularda barqaror qiziqishni tayyorlash;

– zarur zamonaviy moddiy-texnika bazasi yaratish hamda jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish uchun malakali trenerlar tarkibini tanlash, sport zaxirasi va sport turlari bo'yicha yuqori mahoratli sportchilar tayyorlash yuzasidan o'quv-mashq jarayonini tashkil etish;

– xalqaro sport maydonida mamlakat sharafini munosib himoya qilishga qodir bo'lgan O'zbekiston terma jamoalari uchun o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishning eng yangi usullarini qo'llagan holda sport zaxirasi va yuqori mahoratli sportchilar tayyorlash;

– sport tayyorgarligi bosqichlarida barcha yosh guruhlari bo'yicha maktablarning o'quvchi-sportchilarini o'qitish usullari va shakllarining uzviylikini ta'minlash;

– tajriba almashish masalalari bo'yicha har xil sport tashkilotlari va federatsiyalar bilan hamkorlikni rivojlantirish, o'quvchi-sportchilarning sport mahoratini, shuningdek sport turlari bo'yicha trenerlar va boshqa mutaxassislarning kasb malakasini oshirish, mamlakat yoshlari

o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni, sog'lom turmush tarzini ommalashtirish kabi vazifalardan iborat. Sport maktabi xodimlarining lavozim majburiyatlari ham belgilab berilgan.

Ikkinchi nizom O'zbekiston Respublikasidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan sport maktablarining xodimlari mehnatiga haq to'lash va ularni moddiy rag'batlantirish tartibi va shartlarini belgilab beradi. Iqtidorli sportchilarni tayyorlagan trenerlarga davlat tomonidan katta e'tibor qaratilgan. Ushbu nizomda nafaqat trenerlar balki sport maktablari direktor, direktor o'rinbosarlari, yo'riqchi-uslubchilar va tibbiyot xodimlari rag'batlantirishi belgilangan. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad sohani rivojiga qo'shgan hissasi inobatga olinganligidir.

Yana bir muhim hujjatlardan biri bu "Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi 355-son qaroridir.

Ushbu qaror bo'yicha sport maktablari rahbarlari, rahbar o'rinbosarlari, yo'riqchi-uslubchilari va trenerlari malaka sertifikatlari bilan bog'liq hujjatdir. Qarorda davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim, professional ta'lim muassasalari, oliy ta'lim muassasalari, olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari, sport turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan davlat maktab-internatlari, sport maktablari hamda sport tashkilotlarining jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tartibini belgilab beradi. Jismoniy tarbiya va sport sohasida faoliyat yuritishi uchun albatta malaka sertifikatiga ega bo'lishi kerak [5]. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasida trener-trenerlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun malaka sertifikatiga ega bo'lgan hamda o'quv-mashq, ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarini o'tkazishni, shuningdek sport natijalariga erishish uchun bellashuv faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiruvchi jismoniy shaxs ekanligi belgilangan [1]. Demak malaka sertifikati trenerlik faoliyati bilan shu-g'ullanish huquqini beruvchi hujjat hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan normativ huquqiy hujjatlar sport maktablari faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq asosiy hujjatlar sanalishini inobatga olgan holda har bir sport maktabi xodimlari ushbu normativ huquqiy hujjatlarni yaxshi o'zlashtirishi va faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yishiga xizmat qiladi.

Аннотация. В данной статье анализируется содержание нормативно-правовых документов, регулирующих деятельность спортивных образовательных учреждений.

Ключевые слова: спорт, физическая культура, указ, постановление, норма, положения, право, стратегия развития, олимпийский, секция, тренер.

Annotation. This article analyzes the content of regulatory documents regulating the activities of sports educational institutions.

Keywords: sport, physical culture, decree, resolution, norm, regulations, law, development strategy, Olympic, section, coach.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentabrdagi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-394-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-2742233>;

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>;

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyundagi "Davlat sport-ta'lim muassasalari faoliyatini mutlaqo yangi tizim asosida tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 268-sonli qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6048725>;

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 23-sentabrdagi "Sport maktablari faoliyatini hamda sport maktablari trenerlari va mutaxassislari mehnatini moddiy rag'batlantirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 211-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/-1683015>;

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi "Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 355-son qarori. <https://lex.uz/docs/-6093267>.